

YUSUF XOS HOJIB "QUTADG'U BILIG" ASARINING TARBIYAVIY AHAMIYATINI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB O'RGATISH

Bekmirzayeva Mazmuna Avazmatovna

Parkent tuman texnikum o'qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq adabiyotining yuksak durdonalaridan biri bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") asarining g'oyaviy-badiiy, falsafiy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda komil inson konsepsiyasi, davlat va jamiyat boshqaruvi, ilm-ma'rifatning o'rni, axloq va odob masalalari hamda shaxsning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq qarashlar yoritilgan. Shuningdek, asarning o'rta asr Sharq adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri, uning didaktik xususiyatlari va bugungi zamon ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida "Qutadg'u bilig" asarining tarbiyaviy-falsafiy mohiyati va yosh avlodni ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashdagi o'rni asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig, komil inson, O'rta asr adabiyoti, didaktik asar, ma'naviyat, axloq va odob, davlat boshqaruvi, ilm-ma'rifat, falsafiy qarashlar.*

KIRISH

Yusuf Balasog'uniy Yettisuv o'lkasidagi Quz O'rdu (Balasog'un) shahrida 1011 yilda dunyoga keladi degan tahminlar mavjud. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o'lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan Qoraxoniylar sulolasi qo'l ostida edi. Bu sulola VI–IX asrlarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligining davomchilari bo'lib, IX asr o'rtalaridan davlatni boshqarib keldilar.

Tovg'ach Bug'raxon (924–955) islom dinini qabul qildi va shu bilan turkiy elatlar ham uzil-kesil islom mintaqa madaniyatiga kelib qo'shildilar. X asr oxiriga kelib, Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, Qoraxoniylar Movarounnahrni tugal egalladilar. Balasog'un ushbu ulkan mamlakatning shimolidagi poytaxti edi.

"Qutadg'u bilig" asarini 1070 yilda yozib tugatgan Yusuf o'zi haqida asar muqaddimasida shunday ma'lumot beradi: "Bu kitobni tartib beruvchi Bolosog'unda tug'ilgan, sabr-qanoatli kishidir.

Ammo bu kitobni Koshg'arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug'lab, o'z saroyida" Xos Hojib"lik lavozimini beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi". Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin Tavg'ach ulug' Bug'ro Qoraxon bo'lib, Qoraxoniylar davlatini boshqargan.

Asosiy qism mazmuni va mundarijasiga ko'ra "Qutadg'u bilig" dostoni mintaqada adabiyotining birinchi bosqichida yaratilgan turkiy tildagi islom ma'naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi deb baralla ta'riflasak arziydi. Uningdek ulug' yaxlit kitob Buxoriyning "Jome' as-sahih"idan keyin arab va fors tillarida ham

yaratilmagan edi. VIII–IX asrlarda Abdulhamid Kotib, Ibn Muqaffa (720–756), Adib Ahmad Yugnakiy, Johiz (775–868) kabi yirik adiblar tomonidan asos solingan adab ilmi, Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-axloqiy falsafasi, “Shohnoma” va turk xoqonlarining yodnomalari, mintaq xalqlarining boy man’aviy merosi bu asar mag’ziga singdirilgan. Eng asosiysi, bu kitob islom mintaq ma’naviyatining qomusi bo’ldi. Firdavsiy “Shohnoma”si mintaq xalqlarining o’tmish tarixini badiiy aks ettirsa, Yusuf Xos Hojib asari uning yangi davrdagi holatini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida mujassam etdi. Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o’zgartirishni emas, muvofiqlashtirish, uyg’unlashtirish, takomil baxsh etishni maqsad qilib qo’yadi. Chunki XI asr islom jamiyatining shakllanib, yuksalib kelayotgan davri bo’lib, unda takomillashtirish takliflari o’rinli edi.

“Qutadg’u bilig”ning badiiyligi juda yuqori. Undagi har bir qirra, voqyealardagi hayotiylik va shoir xayoli o’zaro nihoyatda uyg’un. Shoirning tasvirlari yorqin, tili nihoyatda shirali, mazmunga boy. Islom mintaq she’riyatining eng asosiy uslubi xususiyati – har bir baytning mustaqil tasviriy, timsoliy birlik darajasiga ko’tarilish talabi Yusuf tomonidan to’la his qilingan va amalga tatbiq etilgan.

Hozirgi ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. O’qituvchi bu jarayonda o’quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir yetish usullari bo’lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o’quvchilarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o’quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo’lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo’lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Sharq adabiyotining tengsiz va bebaho yodgorliklaridan biri bo’lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari turkiy xalqlar ma’naviy tafakkuri taraqqiyotida alohida o’rin egallaydi. Ushbu asar ota-bobolarimizning komil inson haqidagi qarashlari, davlat va jamiyat boshqaruvi, ilm va ma’rifatning ahamiyati,

axloq va odob masalalari, falsafiy tafakkuri hamda o'g'il-qiz tarbiyasiga oid qarashlarini o'zida mujassam etgan noyob didaktik manbadir.

“Qutadg'u bilig” o'rta asrlarda nafaqat turkiy adabiyotga, balki butun musulmon Sharq adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Asar g'oyaviy-ma'rifiy yo'nalishi bilan keyingi davrlarda yaratilgan ko'plab axloqiy-falsafiy asarlarga asos bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham “Qutadg'u bilig” dunyo olimlarining doimiy e'tiborida bo'lib, u o'zbek, turk, rus, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, turkman, uyg'ur, ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida o'rganilmoqda.

Asar nomining o'ziyoq uning mohiyatini ochib beradi. “Qutadg'u bilig” – “baxt-saodatga eltuvchi bilim” degan ma'noni anglatib, unda pand-nasihat, ta'lim-tarbiya va komil insonni shakllantirish g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi. Shu jihatdan u o'z davri uchun mukammal hayotiy darslik vazifasini bajargan.

Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy va badiiy adabiyotlarni chuqur o'rgangan mutafakkir edi. U qadimgi turkiy yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodini puxta bilgan holda, xitoy, mo'g'ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati hamda yunon falsafasining muhim jihatlaridan ham xabardor bo'lgan. Ana shu keng dunyoqarash “Qutadg'u bilig” asarining mazmunan boy va falsafiy jihatdan chuqur bo'lishiga asos bo'lgan.

Bizgacha Yusuf Xos Hojibning faqat “Qutadg'u bilig” dostoni yetib kelgan bo'lsa-da, bu asar muallifning yuksak ijodiy salohiyatini yaqqol namoyon etadi. Taxminan 6,5 ming baytdan iborat bunday yirik va mukammal asarning shoirning ilk ijodi bo'lishi uning iste'dod darajasini ko'rsatadi. Asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi xoqonga taqdim etilgan bo'lib, u oxirgi tahrir hisoblanadi.

Dostonda tasavvufiy qarashlar, adolat, xalq va jamiyat manfaatiga xizmat qilish g'oyalari muhim o'rin tutadi. Muallif umrini adolat va xalq baxtiga bag'ishlashni eng oliy maqsad deb biladi. Asardagi O'gdulmish obrazi aql va bilim timsoli bo'lib, u adolat xizmatiga sodiq, komil inson sifatida tasvirlanadi.

Ma'lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan.

Yusuf Hos Hojibning Qutadg'u bilig asarini o'qitishda keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom yettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin.

Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

CHARXPALAK" USULI

Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan. "Charxpalak" texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;
 - tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
 - belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga yesa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiradilar;
 - boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
 - materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;
 - o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar yekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;
 - har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.
- Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi.

Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" –Toshkent.:1971
2. G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" –Toshkent.: 2008
3. N. Rahmonov, Q. Sodiqov. "O'zbek tili tarixi" –Toshkent.: 2009
4. A. Nurmonov. "O'zbek tilshunosligi tarixi" –Toshkent.:2003
5. M.Qosimova "Qutadg'u bilig" asarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati. Alisher Navoiy nomidagi